



O'TKIR HOSHIMOVNING "IKKI ESHIK ORASI" ROMANIDA AYOLLAR TASVIRINING BADIY XUSUSIYATLARI

Izbosarova Aziza Xusniddin qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti,

Turkiy tillar fakulteti

1-bosqich talabasi

<https://www.doi.org/10.37547/ejsspc-v03-i02-p1-04>

ARTICLE INFO

Received: 23th January 2023

Accepted: 03rd February 2023

Online: 04th February 2023

KEY WORDS

Shaxslararo konflikt, ifoda
klasifikatsiyasi, tasviriy ifoda,
O'zbek onasi, ayol tasviri.

ABSTRACT

Ushbu maqola adabiy unsurlarning tasviriy vositasida namoyon bo'lish holatlarining yuzaga kelish sabablari haqida bo'lib, O'tkir Hoshimovning g'oyaviy jihatdan asarlari tarkibida milliy ruhning ustunligi hamda ayollar tasviri qalamga olingan.

O'tkir Hoshimov o'zining "Ikki eshik orasi" romanida kishilik jamiyatimizning ijtimoiy hayot tarzi, kundalik turmush sharoitining tasviriy ifodalarini keng tarzda yoritgan. Ushbu asar keng jamoatchilik vakillari orasida yuksak mavqega ega bo'lishi bilan ajralib turadi. Romanda ayollar obraziga ham keng o'rin berilgan. Ular ichida, ayniqsa, Qora amma ajralib turadi. Qora amma-mehribon, soda, bardoshli va jafokash ayol. Uning obrazida urush davridagi o'zbek onalarining siymosi tasvirlangan. U boshiga tushgan barcha ko'rgiliklarni sabr-bardosh bilan yengib o'zida yashashga kuch topadi. Qora amma olti farzandini yerga qo'yib, bittagina Kimsanini yer-u ko'kka ishonmasdan katta qildi. Yurtda mudhish urush boshlangach, miq etmay, el-yurt ishiga kamarbasta bo'lsin deb yolg'iz farzandi -Kimsanini urushga kuzatadi. Biroq o'g'li urushdan qaytmaydi, ayni manashu o'rinlarni muallif tasviriy vositalar bilan birga o'zaro konfliktlar bilan ifofda etadi. O'. Hoshimov konfliktlarga boy vaziyatni badiiy qonuniyatlarga muvofiq yaratadi.

Qishloqda Kimsan bilan unashtirilgan bu qiz endi Kimsanning salkam yori deb yurgan kishilar uni boshqa bir uyga kelin tarzida kuzatdilar. Bu paytda qanday kishida kechmishlar xulosalar o'tishi mumkin? Dildagi gap-so'zlarini larni izohlash uchun bunday paytda anchayin og'riqli xulosali vaziyatlar paydo bo'ladi. Muallif mana shu vaziyatni shunchaki ochib bermagan. Ushbu tasvir reallikka ega bo'lib, o'ziga xoslik tarzida ochib bergan. O'z zamonasining voqealar kesimiga jimgina rozi bo'lib yashab kelyotgan Robiya yor uyiga kelinbo'lib ketyotgan kezda hayolidan turli narsalar bilan birga alam va iztirob ham mavjud edi.

Yerda ot ham yig'laydi
Ot bo'ldim deb, yor-yor,
Yo'lda yor ham yig'laydi
Yot bo'ldim deb, yor-yor.

Ya'ni Robiyaning mana shunday ichki xotirjamligi emas, balki psixologik tasviri, o'z-o'zi bilan kurashish ya'ni konflikti u o'z ichida kurshlarda qoldi. Hozirgi zamonda bu aqlga



sig'maydigan bir vaziyatdir, kimningdir yori ma'lum bir sababdan so'ng yana bir boshqa kishiga turmushga chiqib ketse eh, bu yerda nimadir bor yoki bo'lmasa, attang deya qolamiz. Bunday vaziyatda men turmush qurmayman deyishlari ham mumkin, biroq Robiya o'zining hayot tarzi, soddaligi, samimiyligi va ifodaviyligi bilan ajralib turadi. Nafaqat Robiya balki, boshqa obrazlar ham mana shunday psixologik tasvir mohiyatlaridan anchayin foydalanishgan.

„Ikki eshik orasi“ bekorga shov-shuvlarga va tortishuvlarga sabab bo'lgan asar hisoblanmaydi. „Aynan mana shunday jihatlari bilan yana bir obraz bor - Qora amma obrazi. Buni biz kuzatishimiz mumkinki, Bashorat obrazi ayol bo'lishiga qaramasdan, erini urushga ketishiga qaramasdan ayollarning birinchilaridan bo'lib, traktor yani mashina haydaydi“¹. Traktor haydash va qizlarni o'qitish texnika ishlariga jalb qilish masalalari urush davrlaridan keyin qayta qurilish yillarida urush davrida yuzaga kelgan masalalardan. „Yo'q, men ayol kishiman, mening kuchim yetmaydi, men ojizaman“, -deb o'tirmadi. Nafaqat Bashorat, Robiya, Qora amma, Fotima kelin, Zuhra kelin barcha-barchasi mehnat, mehnatning ortidagi zahmatga chidab bera oldi. Ular jamiyatda hech norozilik bildirmadi. Yo Xudo men bunday jamiyatni tilab olmagan edim deb nolib o'tirmadi. Ular istisnolarga berilishmadi, biroq, ular mehnat qildi, kim uchun albatta, farzandi uchun, yurtim deb, elim deb urushda yurgan kishilar uchun, yana nima uchun desangiz, ularni boqib turgan, oyoq izlarini bosib turganda izi qolguvchi vatani uchun kurashdi. Sovuq kunlarda, ayovsiz mehnatli kunlarda loylarga botib, aravalarni tortib juda qattiq mehnat qilgan kezlarda badiiy tarzda O'tkir Hoshimovning ifoda usuli o'ziga xoslikni tashkil etadi. Ular- „men charchadim, menga yoqmay qoldi, menga nima zarur ekan“ deya har xil o'ylarga berilishmadi. „Yo'q, yo'q... mana shu mehnatni biz qilyapmiz, mana shu yerdan o'sib chiqqan, voyaga yetgan mevalar, yeguliklar urishdagi akalarimizga, ukalarimizga xizmat qiladi, ozuqa bo'ladi“ deb, ular mehnattan sira ham to'xtaganlari yo'q. Bundan tashqari aynan urush yillarida matonatli mehnat bilan birga xalqimizning boshiga tushgan kulfatlar va kishilar kayfiyati ochib beriladi. Bunda asar qahramonlari mana shunday vaziyatlarda o'zlarini qay tarzda tutishi, qanday tartibda fikr yuritishi, mulohaza qilishi, vaholanki, urush zamoni va qahramonlarning munosabatlarini, badiiy talqinda O'tkir hoshimov yoritib beradi. „Hoyot shunchaki osonchilikdan, kulgulardan iborat emas. Uning qiyinchiliklarini, mehnatini, zahmatini his qilgan asarimiz qahramonlari barchasiga chidab yashaydi“². Misol uchun: Robiyani olaylik. Ota-onasidan erta yetim qoldi, begona kishilar qo'lida tarbiyalandi, biroq, Qora amma ham, Hasan duma ham bularga mehribon edi, biroq o'z muhabbatini baxtini topib endi men ham baxtga yetarmikanman deganda u baxtidan ya'ni Kimsandan ham ajrab qoldi. Mana shunday vaziyatda u hayotdan norozi bo'lib, o'z joniga qast qilmadi yoki uzoq-uzoqlarga qochib ketmadi. U majbur bo'ldi, hali yosh kichik bolani tarbiyasiga o'zini jalb qilishga, yaxshi rafiq bo'lishga, mehr-muhabbat ulashishga majbur bo'ldi. Necha yillardan buyon sevgan yori ya'ni Kimsanga deb tikkan qiyiqchalarini boshqa bir kishining uyiga ko'tarib borishlik bu ...

Uyda kelin yig'laydi, o't bo'ldim deb, o'r-o'r....

Tog'da toychoq kishnaydi, ot bo'ldim, deb yor-yor,

Uyda kelin yig'laydi, yot bo'ldim deb, yor-yor...

¹ Hoshimov O'tkir Ikki eshik orasi roman. Adabiy barhayot asarlar turkumi. T.: Ilm-ziyo-zakovat, 2019

² Muhammadova Mahbuba, Axmatova Nigora O'tkir Hoshimovning Ikki eshik orasi romanida folklorning o'rni.



Osmonda yulduz ko'rdim: Oltin qoziq, yor-yor.

Tushayotgan kelinning ko'ngli nozik, yor-yor.

„Odatda har qanday qiz ham ota onasinikidan chiqib ketyotganda yig'laydi. Lekin ming yig'lagani bilan yuragining tub-tubini yoritib, ilitib turadigan nur bo'ladi". Haqiqatdan ham, Robiya yoshligidanoq hayotning qiyinchiliklariga duchor bo'ldi. U qanchalik kuyrashmasin, Kimsan akasini kutmasin uning atrof va jamiyatda bo'lyotgan ishlarga, barchasiga rozi bo'ishdan boshqa chorasi qolmadi. "O'tkir Hoshimov O'zining ushbu asari bilan o'tgan davr kishilarining hatotga, muhitga bo'lgan munosabatlarini badiiy tarzda yetkazib beruvchi sohir qalam ijodkordir. Robiya o'zi xohlahandek kun kechirmas, baki Kimsan bilan orzu qilgan hayotini yangi turmush o'rtog'i bilan kechirmas, biroq, u barchasiga chidab, zamona zayliga moslashib, hayot daryosida oqishda davom etishi bu hayotning oltin qoidasi desak, mubolag'a bo'lmaydi"³.

„Ikki eshik orasi" romani 1986-yilda yozilgandan buyon juda ko'p fikrlar ushbu asar haqida ifoda etilgan. Juda ham ko'p. Bundan tashqari ushbu kitobning muharriri hisoblangan Lolaxon Qo'ziboyeva, nashrga tayyorlovchi Ergashboy Matyoqubovlar ham ushbu asar yuzasidan bir necha bor ilmiy tadqiqot ishlariga qo'l urishgan. "Ikki eshik orasi" romani eng ommalashgan va shov-shuvlarga sabab bo'lgan asarlardandir. Chunki, u xalqimizning, xalqimiz qahramonlarining urush yillarida urush zamonida, notinch zamonlarda boshidan o'tkazgan kechmishlarini va xalqimiz kishilarining bu holatdan qanday chiqqan ekanliklarini mardonavor tarzda kuzatiladi. Asarda yodingizda bo'lsa shunday bir voqea tasvirlanadi: "Kuz kelgan, yerlar muzlagan, qahraton biroq bug'doy ekmoq kerak. Yerga ketmon ura, ketmon kirmaydigan yerga qanday bug'doy ekmoqlikni o'zingiz tasavvur qiling". Bunda men senga teginmay, sen menga teginma qabilida mehnat qilsa bo'lar edi. Yo'q, yo'q lekin xalqimiz kishilari mana shunday og'ir va matonatli kishilarni mana shunday vaziyatda bir-birini suyagan holatda o'tkazadilar. Bunday asarlar har doim va hamisha ham yaratilmaydi. Yaratilgan taqdirda ham mavzu ko'lami o'xshash bo'lishi mumkin biroq reallik va tasviriy mohiyati, badiiy so'z qo'llash mahorati ushbu asarda keltirilgan konfliktlar, muammo, yechim, kulminatsiya barcha-barchasi haqiqiy reallikka, o'ziga xoslikka ega. Sababi, O'tkir Hoshimov u urushni ko'rmagan bo'lishi mumkin, urushda qatnashmagan bo'lishi mumkin, biroq O'tkir Hoshimov urushning asoratlari davrida katta bo'ldi. Urushning asoratlarini his qildi urush asoratlarini ko'rdi. U otasiz, balki akasiz, balki tog'asiz balki bobosiz yashagandir. U his qilishi barobarida barchasini ro'yi-rost tasvirladi. Asarda konfliktlar nihoyatda ko'p. Qora amma qizim deb yurgan va kelgusida kelinim-o'z bolamga atalgan jufti halol, kelinim deb yurgan insonni boshqa bir kishiga „turmushga chiq, seni turmushga beraylik, yoshing o'tib ketyapti" deb aytishida qanchalik hikmat bor. Biroq, mana shunday vaziyat zamon shunday holatni taqozo etmoqdaki, bunday og'riqli masalani O'tkir Hoshimovgina o'zining badiiyati bilan ochib berolgan. Asar kulminatsitalari ham juda kishini junbishga soladi. Misol uchun: oqsoqolning birvarakayiga ikki o'g'lidan ham qoraxat kelganligidagi holat. Tasavvur qilyapsizmi? Bunday holat albatta, kishiga og'riq, og'riqdan tashqari ko'plab iztiroblar keltiradi. Hech bir tasavvur qilib ko'ringa hali jasadi kelmagan bir emas ikki farzandi uchun xudoyi qilishlar, janoza marosimlari o'tkazishlar... Hadiksirab yashash, qanday hadik, kimningdir o'g'li, kimningdir

³ .R.Rasulov,A.Shofqorov,Q.Mo'ydinov.O'qituvchi nutqi madaniyati va notiqlik san'ati.Toshkent:-Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi,2022. 7-bet.



turmush o'rtog'i kimningdir akasiga kutilmaganda qoraxatning kelib qolishi va undan keyingi iztiroblar, alamlar faqatgina O'tkir Xoshimovning "Ikki eshik oras" asarida tasvirlab berilgan. Urush davri va urush xotirasi haqidagi asarlar ko'p, nihoyatda ko'p. Biroq, O'tkir Hoshimovning ushbu asari reallikka asoslanganligi bois o'zining muxlislariga, kitobxonlariga yetib borgan va qayta-qayta o'qishga arziydigan asar hisoblanadi. "Ikki eshik orasi" romanida urush zamoni, urush davri, qayta qurilish yillari va mana shu davrlarda jonajon va mehnatsevar xalqimiz kishilarining qahramonliklari va obrazlari davrga jamiyatga o'zaro munosabatlarda qanday kun kechirgan ekanliklari mana shunday holatlarda badiiylikka ifodaviylikka yo'g'dira olgan O'tkir Xoshimov "Ikki eshik orasi" romani uchun albatta tashakkur aytishga arziirlidir. Badiiy asarlar inson umri va taqdirini murakkab holatlar bilan tasvirlab beradi. Inson hayoti ma'lum davr bosqichlari negizida shakllanadi. Ayni shu davrlar hayotning achchiq-chuchuk ko'rinishlarini ifodalaydi. Taniqli yozuvchi O'tkir Hoshimov qalamiga mansub "Ikki eshik oras" romanida ushbu holatlar keng tarzda ifodalab berilgan. Bu asarda bosh mavzu urush bolib, xalqning ahvoli og'irlashishiga olib kelgan bosh mavzu sanaladi. Bu urush sababli, qanchadan-qancha ota-ona farzandidan ajraldi. O'tkir Hoshimov oddiy insonlarning mardligi, jasorati, vatanparvarligi, sabr-bardosh haqida yozgan.

References:

1. Hoshimov O'tkir Ikki eshik orasi roman. Adabiy barhayot asarlar turkumi. T.: Ilm-ziyozakovat, 2019
2. Muhammadova Mahbuba, Axmatova Nigora O'tkir Hoshimovning Ikki eshik orasi romanida folklorning o'rni. BUXDU – 2019
3. R.Rasulov, A.Shofqorov, Q.Mo'ydinov. O'qituvchi nutqi madaniyati va notiqlik san'ati. Toshkent: -Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi, 2022. 7-bet.